

Prezident ta'lif tizimidagi islohotlarning borishi bo'yicha majlis o'tkazdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 16-avgust kuni umumta'lif maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi, oliy ta'lif muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlagan holda yangi o'quv yiliga tayyorgarlikning borishi, 11-yillik o'rta ta'lif tizimini joriy etish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan isloh qilish, yangi ochilgan oliy ta'lif muassasalari, filiallar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ishlar holati bilan yaqindan tanishish maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri I.Majidov, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazi direktori M.Xolmuhammedov, xalq ta'lifi vaziri U.Inoyatov va ularning o'rinnbosarlarini qabul qildi va hisobotlarini tingladi.

Majlisda Prezidentning Davlat maslahatchisi A.Yunusxodjayev, Bosh vazir o'rinnbosari J.Qo'chqorov va Hisob palatasi raisi M.Ikromov qatnashdi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'rta ta'lif, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan isloh qilish borasida berilgan topshiriqlar ijrosining borishi ko'rib chiqildi.

Belgilangan vazifaga muvofiq, umumta'lif maktablari 9-sinf bitiruvchilarini o'z xohishiga ko'ra 10-sinfda o'qishini davom ettirishi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalariga qamrab olish ishlari izchil davom etmoqda.

O'quv rejasiga ko'ra, 10-sinf o'quvchilari haftada 5 kun umumta'lif fanlarini va 1 kun kasbga doir fanlarni o'rganishi belgilandi. Kasb-hunar kollejlaridan uzoq masofada joylashgan 2703 ta muktab uchun 1103 ta muktabda, 6956 muktab uchun esa 615 ta kollejda o'quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etiladi.

Maktablarda 10-sinf ochilishi munosabati bilan 22 ming o'qituvchiga ehtiyoj yuzaga keladi. Shularning 9,5 ming nafari oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarini hisobidan, 13 ming nafari litsey va kollejlar o'qituvchilarini jalb etish hisobidan qoplash rejalashtirilyapti.

2017-2018 o'quv yilidan boshlab 10-sinflarda dars beradigan 116 ming nafar o'qituvchining kasbga oid bilimlarini yangilash va chuqurlashtirish maqsadida qisqa muddatli malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi.

10-sinf o'quvchilari uchun 8,5 million nusxa darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar chop etilib, ayni paytda ta'lif muassasalariga yetkazilmoqda.

Ta'lif muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha vertikal tizim yaratilib, vazirlikdan hududlarga 14 nafar, hududiy xalq ta'limi boshqarmalaridan tuman va shaharlarga 195 nafar, tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlaridan har bir mакtabga mas'ullar biriktirildi.

Bu yil 1-sinfga qabul qilinadigan 650 ming nafar o'quvchi uchun "Prezident sovg'asi" sifatida 12 nomdagi o'quv qurollari solingan maktab sumkalari tayyorlanib, joylarga to'liq yetkazildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamkorligida iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni tanlab olish va ularni oliy ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlashni tashkil etish uchun har bir oliy ta'lim muassasasi huzurida bittadan akademik litsey ochish va faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari olib borilmoqda.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tarmoq vazirliklari va davlat qo'mitalariga biriktirib berildi.

10-11-sinflar joriy etilib, kollejlarda contingent qisqarishi munosabati bilan mavjud moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish maqsadida 7 ta kollej va akademik litsey negizida yangi 3 ta oliy ta'lim muassasasi filiallari va 1 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etilmoqda.

Muloqot chog'ida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini ortiqcha hisobotlar, turli byurokratik topshiriqlardan ozod etish, ularning ilmiy salohiyatini ta'lim mazmuni va sifatini yanada yaxshilash, ilmiy- tadqiqot ishlariiga yo'naltirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasiga to'xtalib o'tdi. Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidladi. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir.

Majlisda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim muassasalariga qator imtiyozlar berish, shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi malaka oshirish institutlarida ta'lim mazmunini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish, ularni eng ilg'or oliy ta'lim muassasalari tarkibiga o'tkazish orqali umumiyl o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga eng bilimli va tajribali professor-o'qituvchilar ta'lim berishiga erishish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

Muloqot yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlariga 25-avgustga qadar barcha ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga va kuz-qish mavsumiga sifatli tayyorlash hamda Investitsiya dasturiga kiritilgan ta'lim obyektlarida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini yakunlash, ko'rilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar loyihibalarini tayyorlash bo'yicha mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

[O'zA](#)